

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI" FIZIKA MATEMATIKA" FAKULTETI

"AXBOROT TEXNOLOGIYALARI "KAFEDRASI

«5111018-Kasb ta'limi:Informatika va axborot texnologiyalari» yo'nalishi

141-guruh talabasi Rustamova Shahnoza Umrbek qizi

«WEB TEXNOLOGIYAGA ASOSLANGAN TALABANING SHAXSIY
QIYOFASINI ANIQLASH DASTURI»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

"Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi".

Kafedra mudiri.

_____ dots.X.A.Madatov
" _____ " _____ 2018-yil

Ilmiy rahbar _____

t.f.n.dots.G'.R.Matlatipov

" _____ " _____ 2018-yil

Taqrizchi _____ dots.A.Ashirova

" _____ " _____ 2018-yil

"Himoyaga ruxsat berildi"

Fakultet dekani _____ dots.J.U.Xujamov

" _____ " _____ 2018-yil.

Urganch-2018y

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
Fizika-matematika fakulteti
«Axborot texnologiyalari» kafedrası

«WEB TEXNOLOGIYAGA ASOSLANGAN TALABANING SHAXSIY QIYOFASINI
ANIQLASH DASTURI»

Bajaruvchi:

Sh.Rustamova

Ilmiy rahbar:

G‘.R.Matlatipov

Urganch 2018yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakulteti
«Axborot texnologiyalari» kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO‘YICHA TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Rustamova Shahnoza Umrbek qizi Universitet rektorining 2017-yil 1-noyabrda chiqarilgan № 187-T&4 sonli buyrug‘i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun **“Web texnologiyaga asoslangan talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturi”** mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan dots.G‘.R. Matlatipov bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. **Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa va adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.
4. **Bitiruv malakaviy ish uchun ma’lumotlar:** mavzu bo‘yicha ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar, mavzuga oid maqolalar va internet saytlaridan olinadi.
5. **Bitiruv malakaviy ishga ilova qilinadi.**

Urganch davlat universiteti “Fizika-matematika” fakulteti

“Axborot texnologiyalar” kafedrası

“Kasb ta’limi: informatika va axborot texnologiyalari” bakalavr ta’lim yo‘nalishi

«Tasdiqlayman»

Fakultet dekani

_____ dots. Xujamov J.

“ ” _____ 2018 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Rustamova Shahnoza Umrbek qizi

1. Ishning mavzusi: “Web texnologiyaga asoslangan talabaning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturi” mavzusi Universitet rektorining 2017-yil 1-noyabrda chiqarilgan № 187-T&4 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “23” iyun 2018y.

3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziyev Ergash G‘oziyevich “Umumiy psixologiya”. Toshkent-2004.
2. Umarov B.M. “Psixologiya”. Voris-nashriyot Toshkent – 2012
3. Sirliyev. B.N, Beknazarov. A.A, Arziqulov D.N “Psixologiya” Toshkent-2005
4. <http://www.php.net> “OFFICIAL DOCUMENTATION WEBSITE OF PHP”. 2001-2014 The PHP Group.
5. <http://www.w3schools.com/php> “ W3SCHOOLS WEB DEVELOPER INFORMATION WEBSITE. 1999-2014 W3schools by Refnes Data.
6. Jeff Derstadt, Scott Selikof, and Lin Zhu “DATABASE MANAGEMENT SYSTEMS SOLUTIONS MANUAL” Third Edition, Cornell University, Ithaca, NY, USA.
7. David Powers “PHP Solutions, Dynamic Web Design Made Easy” friendsoft 2006,

copyright by David Powers.

Internet saytlar:

1. <http://www.ziyonet.uz/>
2. <http://www.freewebmasterhelp.comPHP/MySQL tutorial.>
3. <http://www.siteground.comPHP-MySQL Tutorial.>
4. <http://www.dyn-web.comPHP to JavaScript basics, Dynamic Web Coding.>

4. Ishning maqsadi: Web texnologiyaga asoslangan talabning psixologik qiyofasini aniqlash dasturini tuzish.

5. Maslahatchi: Sh.Bekchanov

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____

“ ” _____ 20__ y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

Talaba _____

(Familiyasi, ismi, otasining ismi)

Ta’lim yo‘nalishi: Kasb ta’limi: informatika va axborot texnologiyalari

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi _____

Ilmiy rahbari _____

(Familiyasi, ismi, otasining ismi , ilmiy darajasi va unvoni)

Ish bo‘yicha maslahatchi _____

(Familiyasi, ismi, otasining ismi , ilmiy darajasi va unvoni)

Taqvimiyyeja _____

BMI tarkibi (rejasi)	Bajarishmuddati:
Kirish	“ ” _____ 20__ y
I - bob. _____	“ ” _____ 20__ y
...	
II - bob. _____	“ ” _____ 20__ y
...	
Xulosa	“ ” _____ 20__ y
Foydalanilganadabiyotlar	“ ” _____ 20__ y
Ilova	“ ” _____ 20__ y

Ishnibajarishuchunzarurbo‘lganmateriallar:

Ishnitopshirishmuddati “ ” _____ 20__ yil.

Ilmiyrahbar _____

(imzo)

Maslahatchi _____

(imzo)

Topshiriqnibajarishuchunoldim _____

(talabaimzosi)

Topshiriqberilgankun “ ” _____ 20__ yil.

TASDIQLAYMAN
 “Axborot texnologiyalari”
 kafedrasimudiri

“ ” _____ 2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH GRAFIGI

Ilmiy rahbar: _____

Bitiruvchi: _____

BMI mavzusi: _____

	Bitiruv malakaviy ishni bajarish bosqichlari	Vazifa berish vaqti	Vazifani qabul qilish (Bitiruvchi imzosi)	Bajarish muddati	Ajr. Soat	Vazifato'liq bajarildi (Ilmiy rahbar imzosi)
1	Bitiruv malakaviy ishni tasdiqlash	-			1	
2	BMI bo'yicha slubiy va amaliy materiallar, adabiyotlari yig'ish				2	
3	BMI mazmun va masalaning qo'yilishini aniqlash				2	
4	Mavjud tizimlarni tahlil qilish				2	
5	BMI ning birinchi bobini rivojlantirish				3	
6	BMI ning ikkinchi bobini rivojlantirish				3	
7	Dasturlash muhitini tanlash				1	
8	Algoritm va dastur ta'minoti				3	
9	Xulosa				1	
10	Adabiyotlar ro'yxati				1	
11	BMI ning qoralama variantini shakllantirish				2	
12	BMI larni tahrir qilish, tuzatish va ish kamchiliklarini bartaraf etish (Rahbarining izohlariga asosida)				3	
13	BMI tugallanganligi bo'yicha rahbar mulohazasi, himoya qilish uchun kafedra topshirihi				2	
14	Talablarga muvofiq BMI himoya qilish (Hisobot)				-	
	Jami				25	

Mavzu: Web texnologiyaga asoslangan talabning psixologik qiyofasini aniqlash dasturi

Mundarija	
Kirish	
I. Tizimlitalilvamasalaning qo`yilishi	
Bilish jarayonlari va ruhiy holatlar-shaxs psixologik qiyofasini belgilovchi omil sifatida	
Shaxsning ruhiy holatlari va ularning ifodalanishi	
Jamiyatdagi ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda ijtimoiy so'rovnomalarning o'rni	
II. ASOSIY QISM	
Talabning shaxsiy qiyofasini aniqlashga yordam beruvchi ijtimoiy so'rovnomalar ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari	
Talabning shaxsiy qiyofasini aniqlashga mo'ljallangan ijtimoiy so'rovnomaning ma'lumotlar bazasini loyihalash va ishlab chiqish	
Talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash ijtimoiy so'rovnomasini dasturiy ta'minotini loyihalash va amaliyotga tadbiiq qilish	
Foydalanuvchigayo`riqnoma	
III. Xulosa	
IV. Dasturilovalari	
V. Foydalanilgan adabiyotlar	

MUNDARIJA

Kirish	3
I Tizimli tahlil va masalaning qo`yilishi	6
1.1 Bilish jarayonlari va ruhiy holatlar-shaxs psixologik qiyofasini belgilovchi omil sifatida.....	6
1.2 Shaxsning ruhiy holatlari va ularning ifodalanishi.....	9
1.3 Jamiyatdagi ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda ijtimoiy so`rovnomalarning o`rni.....	15
II ASOSIY QISM	18
2.1 Talabanning shaxsiy qiyofasini aniqlashga yordam beruvchi ijtimoiy so`rovnomalar ishlab chiqishning o`ziga xos xususiyatlari.....	18
2.2 Talabanning shaxsiy qiyofasini aniqlashga mo`ljallangan ijtimoiy so`rovnomaning ma`lumotlar bazasini loyihalash va ishlab chiqish.....	35
2.3 Talabanning shaxsiy qiyofasini aniqlash ijtimoiy so`rovnomasini dasturiy ta`minotini loyihalash va amaliyotga tadbiiq qilish.....	40
2.4 Foydalanuvchiga yo`riqnoma.....	51
III Xulosa	61
IV Dastur ilovalari	63
V Foydalanilgan adabiyotlar	84

Kirish

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim tizimi oldiga zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimining tashkil qilishga yo'naltirilgan axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash masalalarini rejalashtirib, uzluksiz ta'lim bosqichlarida o'quv jarayonini axborot texnologiyalari bilan ta'minlashni yuksaltirish kabi dolzarb muammolarni hal qilish hamda ta'lim islohatlarini hayotga tadbiq etishni jonlantiruvchi asosiy vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Aynan mazkur masalani keng doirada tadbiq qilish zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Albatta buning uchun shaxs psixologiyasini bilish, ularda kechadigan psixologik o'zgarishlarni anglagan holda yondashishni talab qilmoqda. Web texnologiyaga asoslangan talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturi— birinchi navbatda yangi ijtimoiy so'rovnoma dasturini namoyish etish, an'anaviy tarzda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarni to'ldiruvchi, individual va individuallashtirilgan tartibda ta'lim olishni ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan yashirin to'siqlarni yoritib beruvchi kompyuterli-informatsion (web dastur ko'rinishidagi) dasturiy vositasidir. Shaxs taraqqiyotining o'spirinlik davri tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, mustaqil shaxsiy fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi haqida turg'un tushunchalarning aniq shakllanmaganligi bilan karakterlanadi. Inson hayotining mazkur bosqichida yoshlarda ma'naviy bo'shliq hosil bo'lmasligi lozim. Buning uchun shaxsni tadqiq etishda jahon psixologiyasi tajribalarini inobatga olgan holda muammoni tahlil etish ko'zlangan maqsadni to'laqonli baholash imkoniyatini beradi. Web texnologiyaga asoslangan talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturi ijtimoiy so'rovnoma o'tkazishda qo'shimcha yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi, chunki u bosma so'rovnomaga nisbatan: induktiv yondashuv, eshitish va hissiy xotirasiga va shu kabilarga tushuncha yetkazishda qulayliklar tug'diradi;

-o'quvchining talablariga asosan, uning ichki yashirin holatini yoritish darajasiga, intellektual imkoniyatlariga va qiziqishlariga qarab ko'nikma hosil qilishga imkoniyat yaratadi;

-ijtimoiy so'rovnoma e'tiborni jamlab, ko'proq so'rovnoma topshirish imkoniyatlarini yaratib bergani holda, juda ham katta hisoblar va qayta ishlovlardan ozod qiladi;

-ijtimoiy so'rovnoma topshirishning barcha bosqichlarida o'z-o'zini tekshirish imkonini beradi;

-talabani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

-ortiqcha fayl yoki bosma materillardan fodalaniшни bartaraf qilish imkonini beradi;

-talaba yoshlarning ruhiy holati, bilish jarayonini va intellektini rivojlanish darajasini aniqlash uchun ortiqcha urinishsiz so'rovnoma topshirish imkoniyatini beradi;

Masalaning qo'yilishi. Web texnologiyaga asoslangan talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturini yaratish. Talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturini tuzish uchun quydagi masalalar hal etilishi lozim. Shaxsning bilish jarayonlari, ruhiy holati, ularning turlari, o'quv jarayonidagi ahamiyatini o'rganishlar asosida "Intellekt darajasini aniqlash(Raven test)", "Shulte jadvali(diqqatni aniqlash)", "Bevosita esga tushirish", "Muloqotga kirishuvchanlik", "Teylorning bezovtalanishni aniqlash darajasi", "Stress bilan kurashishingiz kerakmi?" so'rovnoma misolida ko'rib chiqish masalaning qo'yilishi hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Mazkur so'rovnomalarni Web texnologiyalar asosida ishlab chiqish va tadbiq qilish va statistik natijalarni xisoblashda avtomatlashtirish dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Web texnologiyaga asoslangan talabning shaxsiy qiyofasini aniqlash dasturini ishlab chiqish.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi natijasi sifatida

yaratilgan web dasturdan— talabaning shaxsiy qiyofasini aniqlashda, shuningdek talaba yoshlarga psixologik tavsifalar berishda foydalanishimiz mumkin.

BMI ning tuzilishi va qismlari bo‘yicha qisqacha tafsilotlar. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, II ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat. Birinchi bobda talabaning bilish jarayonlari, shaxsning ruhiy holatini, talaba yoshlarning intellektini aniqlovchi ijtimoiy so‘rovnomalar tahlil qilingan. Ikkinchi bobda

- Talabaning shaxsiy qiyofasini aniqlashga yordam beruvchi ijtimoiy so‘rovnomalar ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari
- Talabaning shaxsiy qiyofasini aniqlashga mo‘ljallangan ijtimoiy so‘rovnomaning ma’lumotlar bazasini loyihalash va ishlab chiqish
- Talabaning shaxsiy qiyofasini aniqlash ijtimoiy so‘rovnomasini dasturiy ta’minotini loyihalash va amaliyotga tadbiq qilish.
- Talaba yoshlarning bilish jarayonlari va ularning rivojlanish dinamikasi.
- Foydalanuvchiga yo‘riqnoma

Uchinchi bobda. Xulosa qismida bitiruv ishining asosiy natijalari va uning amaliy tadbiqlari bayon qilingan.

To‘rtinchi bobda. Ilova qismida dasturning oynalari ko‘rinishlari keltirilgan.

Beshinchi bobda. Foydalanilgan adabiyotlar.

BMI ning vazifasi. “Intellekt darajasini aniqlash(Raven test)”, “Shulte jadvali(diqqatni aniqlash)”, “Bevosita esga tushirish”, “Muloqotga kirishuvchanlik”, “Teylorning bezovtalanishni aniqlash darajasi”, “Stress bilan kurashishingiz kerakmi?” , “Depressiyaga moyilmisiz?” so‘rovnomalarni Web texnologiyalar asosida dasturini ishlab chiqib uning statistik ma’lumotlarini avtomatlashtirishdan iborat.

I. BOB Tizimli tahlil va masalaning qo`yilishi

1.1. Bilish jarayonlari va ruhiy holatlar-shaxs psixologik qiyofasini belgilovchi omil sifatida.

Obyektiv dunyo to'g'risidagi ma'lumotlar, fan asoslari bo'yicha axborotlar, ijtimoiy va individual tajribalar, shaxslararo munosabat va muomala o'rnatish, muayyan faoliyatni tashkil qilish va uni boshqarish o'zini o'zi anglashga taalluqli tarkibiy qismlar bilan qurollanishga, ijod va yangilik yaratishga qaratilgan murakkab, iyerarxik hamda integral xususiyatli, faqat insoniyatgagina xos bo'lgan, aqliy va jismoniy negizga quriluvchi intilish va faollikning majmuasi bilish deb ataladi. Bilishning psixologik bosqichlari, darajalari, ko'lami, kengligi, chuqurligi, to'liqligi, aniqligi, yaqqolligi, ifodalanish shakllari va vositalari, barqarorligi, mustaqilligi va uning ijtimoiy psixologik mexanizmlari to'g'risida ma'lumotlar sharhlanadi. Inson shaxs bo'lib shakllanishida va rivojlanishida bilish jarayonlari asosiy funksiyani bajaradi. Bilish jarayonlari qadim zamonlardan beri olimlarning diqqat markazida bo'lgan muammolardan biri bo'lib kelgan. Bilish jarayonlari o'z ichiga diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayolni qamrab oladi.

Diqqat deb- ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini aytamiz. Biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi. Diqqatga hamma vaqt u yoki bu darajadagi faollik xosdir. Bunday faollik ongning bir nuqtaga to'planishining kuchayishi va ma'lum vaqt mobaynida diqqat qaratilgan narsaga ongning faol yo'naltirilishini saqlab turishdan iboratdir. Diqqat o'qish ishining ham zaruriy shartidir. O'quvchilarning dars materiallarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari, dastavval diqqatning mavjud bo'lishiga bog'liqdir. K.D.Ushinskiyning "diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari uning ahamiyatini bildiradi. Haqiqatdan ham diqqat eshigidan

tashqarida qolgan narsa ongimizga yetib bormaydi. Shulte jadvali metodikasi orqali diqqatni qanday darajada ekanligini aniqlash mumkin. Metodika diqqatning ko'chish tezligi, murakkab sharoitlarda kerakli ma'lumotlarni tanlash bo'yicha ish qobiliyati va uning barqarorligini aniqlash uchun mo'ljallangan.

Sezgi deb - atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi. Idrok deb - sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi. Idrokning muhim tomonlaridan biri - uning xususiyatlarini turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri - bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (persektiv) faoliyatini uning o'zlashtirgan bilimlari, to'plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi. Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Masalan: toshko'mir yorug'likda yog'du sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni "qora" va "oq" deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita sub'ektiv taassurotlarga nisbatan o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritadi. Idrok jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirok etsa ham idrok sezgilarimizning oddiy yig'indisidan iborat deb bo'lmaydi. Idrok jarayonida turli sezgilarimizdan tashqari odamning shu paytgacha orttirgan bilim ko'nikmasi va turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Odam o'z bilim ko'nikmasi va turmush tajribasida juda ko'p narsa va hodisalarni takror-takror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanilgan xarakterlarga egadir. Talaba yoshlarning shaxsiy intellektini dinamikasini aniqlashda Raven testi metodikasi eng

samarli ijtimoiy so'rovnomadir. Metodika mantiqiy fikr yuritish uchun mo'ljallangan. Raven test metodikasi talaba yoshlarning bilim olish uchun psixik holatini va shaxsiy intellektini aniqlab beradi.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan dinamik faoliyatdir. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta bevosita esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi. Masalan, o'quvchilar maktabda o'qitilayotgan narsalarini esda olib qoladilar, esda saqlaydilar va esga tushiradilar. Kundalik tajribamiz ko'rsatadiki, esda qolgan narsalarning hammasi ham esimizga tushavermaydi, ularning bir qismi unutiladi. Unutish ham xotiraga oid hodisadir. Ta'surotlarning ana shunday esda qoldirish va keyin esga tushirishning fiziologik asosiga muvoffiq bog'lanishlarning hosil bo'lish, mustahkamlanish va keyin jonlanish (tiklanish) jarayonidir. Esda

qoladigan narsa xotira materialini, esda saqlanib turadigan va esga tushiriladigan narsa esa xotiraning mazmunini tashkil qiladi. Talaba yoshlarning xotirasini qay darajada ekanligini aniqlash “bevosita esga tushirish” metodikasidan foydalaniladi. Talabalarning shaxsiy qiyofasini aniqlashda bilish jarayonlari xususan xotira ham katta ahamiyat kasb etadi. Talaba yoshlarni bilim olishi, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi, yashirin ichki intellektini aniqlashda bilish jarayonlari so‘rovnomalarini o‘tkazish samarlidir. Bunday so‘rovnomalar shaxs xotirasini tiklanishiga ham yordam beradi.

1.2. Shaxsning ruhiy holatlari va ularning ifodalanishi.

Ruhiy holatlar idrok xususiyatlari tarkibiga kiradi. Shaxsning ruhiy(psixik) olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iboratdir. Shaxsning ruhiy holati ya’ni hissiyot tarkibiga: Kayfiyatlar, stress, depressiya, eyforiyalar kiradi. Inson idrok etish, hayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi u yoki bu narsalarga qanday bo‘lmasin munosabat bildiradi. Unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg‘u paydo bo‘ladi. Bunday ichki shaxsiy munosabatning manbai - faoliyat va munosabat jarayonlari bo‘lib, u ana shunday jarayonlarda ro‘y beradi, o‘zgaradi, barqaror tus oladi yoki yo‘qoladi.

Hissiyot - kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Hissiyotni boshdan kechirishning turli shakllari - emotsiya, effekt, kayfiyat, turli hayajonlanish, stress mavjud. Ehtiros, tor ma’nodagi so‘z bilan aytganda, his-tuyg‘ular - shaxsning emotsional soxasini tashkil etadiki, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi, bilishning jonli manbai, odamlar o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlarning ifodasi bo‘lib hisoblanadi.

Hissiyot yoki emotsiya deb kishining bilmoqchi va qilmoqchi bo‘lgan narsalariga o‘z munosabatlarini tuyg‘ularidan kechirishini, ya’ni muhitdagi narsa va hodisalarga, o‘z ishlariga, o‘ziga va o‘zining qilgan harakatlariga bo‘lgan

munosabatlaridan tugʻilgan tuygʻularga aytiladi. Bir narsadan huzurlanish yoki behuzur boʻlish, suyunush, qaygʻurish, muhabbat, qahru-gʻazab, gʻayrat va shijoat, qoʻrqish, iztirob, tashvish, xotirjamlik kabi hollarning har qaysisi hissiyot yoki emotsiyaning bir misolidir.

Hissiyot manbalari haqiqatda mavjud boʻlgan har xil narsa va hodisalarki, odam oʻz hayoti va faoliyatida bu narsa va hodisalarga toʻqnashadi. Biroq har bir narsa va hodisani odam bevosita oʻzi idrok qilmaguncha, yoki biron boshqa yoʻl bilan uni bilmaguncha, bu narsa va hodisalar hissiyot manbai boʻlolmasligi aniqdir. Biron narsaga qandaydir munosabatda boʻlmoq uchun uni biron jihatdan bilmoq kerak. Shu sababli hissiyot hamisha sezgi, idrok, xotira yoki hayol obrazlari, fikr shu kabi bilish jarayonlari bilan birgalikda kechadi.

Hissiyotlar taʼsirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-mulohazalar bildirishga turtki beradigan kuch boʻlib, kuch-gʻayratlarni oshirib yuboradi va stenik deb ataladi. Boshqa bir hollarda emotsiyalar sustligi, loqaydligi bilan ajralib turadi, his-tuygʻularning boshdan kechirilishi kishini boʻshashtirib yuboradi va bu holat psixologiyada astenik deb ataladi (masalan, qoʻrqqanidan oyoqlari qaltirashi, kuchli his-tuygʻuga berilib, hayolga choʻmib, oʻzi bilan oʻzi ovora boʻlib qolish hollari).

Affektlar yoki hissiy portlashlar - kishini tez chulgʻab oladigan va shiddat bilan oʻtib ketadigan jarayonlardir. Ular ongning anchagina darajada oʻzgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning oʻzini oʻzi idrok qila olmasligi, shuningdek, uning butun hayoti va faoliyati oʻzgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affektlar birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab boʻlgani uchun ham qisqa muddatli boʻladi: ular his-tuygʻularning bamisoli birdan lov etib yonib ketishiga va portlashiga oʻxshatish mumkin. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etsa, u holda affekt boʻrondir. Har bir his organizmning ishlashiga taʼsir koʻrsatib oʻzgaradi va inson tanasida uning turli alomatlari paydo boʻladi.

Kayfiyatlar - ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi. Kayfiyat shod-xurram yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, xayajonlilik yoki ma'yuslik, jiddiylik yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va hokazo tarzda bo'ladi. Kayfiyat juda xilma-xil, yaqin va ancha uzoq turuvchi manbalarga ega bo'lishi mumkin. Turmushning butun borishidan, jumladan, ishda, oilada, maktabda munosabatlarning qanday yo'lga qo'yilganligidan, kishining hayot kechirishi yo'lida paydo bo'layotgan har qanaqa ziddiyatlar qay tarzda bartaraf etilishidan qanoat hosil qilishi yoki qanoatlanmaslik kayfiyatlarning asosiy manbalari hisoblanadi. Kishining uzoq vaqt yomon yoki lanj kayfiyat bilan yurishi uning hayotida biror narsaning ko'ngildagidek emasligini ko'rsatadi.

Kayfiyat kishining butun fe'lini bir muncha vaqtgacha bir rangga solib turuvchi umumiy bir ruhiy holatdir. Ko'p hollarda kishining kayfiyatiga, uning uchun juda muhim bo'lgan bir voqea orqasida tug'ilgan ma'lum bir hissiyot sabab bo'ladi. Ertalab eshitilgan noxush xabar kishining ta'bini kechgacha xira qilib, iztirobga solib, kayfiyatini buzushi mumkin. Ishda topilgan jiddiy muvaffaqiyat bir necha kungacha kishini shodlantirib, kayfiyatini chog' qilishi mumkin. Hissiyotning shunday qobiliyati borki, hissiyot uni tug'dirgan narsadan o'tib, bu narsa bilan aloqador bo'lgan boshqa narsalarga ham yoyiladi. Buning natijasida kishida kayfiyat deyilgan umumiy bir ruhiy holat paydo bo'ladi.

Stress yoki kuchli hayajonlanish - psixologik ta'rifga ko'ra affekt holatiga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli (ingl. «stress» - zo'riqish) hissiy zo'riqishdan iboratdir. Hissiy zo'riqish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, taxlika ostida qolib ketgan kabi vaziyatlarda ro'y beradi. Umuman olganda, stress tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan stresslar muqarrar va zararsiz bo'lib, xaddan tashqari ortib ketgan stress

esa shaxs uchun ham, korxonalar va tashkilotlar uchun ham qiyinchiliklar, qo'yilgan maqsadlarni qo'lga kiritishda muammolar keltirib chiqaradi.

Stress deganda insonning atrofdagi stimullarga yoki tashqi ta'sirlarga jismoniy, kimyoviy va psixologik reaksiyalari majmui tushuniladi. Bunda atrof- muhitdagi kuchlar insonning fiziologik va psixologik funktsiyalarini muvozanatdan chiqaradi. Stress holatini jismoniy, psixologik omillar majmui, ya'ni stressorlar keltirib chiqaradi. Hayotda stresslar bo'lib turishi tufayli ularni boshqarishni, ular keltirishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirishni bilish zarur.

Inson psixologiyasini bilish uchun, uning psixikasida hissiyot tomonidan bo'lgan farqni bilish juda muhim. Birovni yaxshi tanimoq uchun uning fikrini va harakatlarini bilish bilangina kifoyalanmay, balki uning hissiyoti qandayligini ham bilish kerak. Insonlarning hissiyotidagi farqlari quyidagi bo'lishi mumkin: hissiyotning yo'nalishi, hissiyotning chuqurligi, hissiyotlarning barqarorligi.

Hissiyotning yo'nalishi - kishilarning hissiyotidagi eng muhim farqlari belgilangan narsa, hissiyotning nimaga qaratilganligi, uning mazmuni qandayligidir. Inson hislari har xil tasodifiy narsalarga sochilib, parishon bo'lsa, tasodifiy hollarda kishilarda har xil hislarni tug'dirsa, bunday hissiyot kishining ijodiyotiga, turmushdagi kurashiga madad beruvchi kuch xizmatini o'tay olmaydi. Aksincha kishining hayotidagi asosiy vazifasidan boshqa ishlarga chalg'itib, tanlagan yo'lidan adashtirib, ancha to'sqinlik qilishi ham mumkin.

Hissiyotning chuqurligi - birovning hissiyotiga oid hayotini bilish uchun uning hissiyotining qanchalik chuqurligini bilish muhimdir. Chuqur his deb - hayotning shu odam uchun eng muhim bo'lgan tomonlariga daxil qilgan, kishining fikri, tiliga va orzulari bilan ko'p aloqador bo'lgan va kishining butun ruhiy hayotini aks etib ko'rinuvchi hisni aytamiz. Hissiyotning boy va mazmundorligi, inson hislarining kuchliligidan ko'ra ko'proq chuqurligiga bog'liqdir.

Hissiyotlarning barqarorligi - ularning chuqurligi bilan juda yaqin bog'liqdir. Chuqur his mahkam va barqaror bo'ladi; sayoz hislar esa, garchi kuchli bo'lsa ham, umri qisqa bo'lib, tez o'tib ketadi.

Uzoq davom etadigan va barqaror bo'lgan emotsional holatlardan biri – ehtirosdir. Kayfiyatdan ehtirosning farqi shuki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan obyektiv muttasil intilishda kuchli suratda ifodalangan holatdir. Bular - ijobiy ehtirolarga misol bo'lib, ular odamni ulkan ijodiy faoliyat yo'liga yetaklovchi kuchdir.

Ehtiroslar kishidagi barqaror his-tuyg'ularning alohida turini tashkil etadi. Odamlarning bajarayotgan ishiga va hayotida yuz berayotgan narsalarga nisbatan ichki munosabati boshdan oxirigacha barqaror tus kasb etadi, doimiy harakat qiluvchi kuchga aylanadi. Bu kuch kishi tomonidan uni hayajonlantirgan narsa qanday idrok etilishi, tasavvur qilinishi va hayolga keltirilishi, uning bir-biri bilan almashib turadigan hissiyotlarni, affektlarni, kayfiyatlarni qanday boshdan kechirishi xususiyatlarini belgilaydi. Bu kuch muayyan harakatlarga da'vat etuvchi va qaror topgan his-tuyg'uga mos kelmaydigan xatti-harakatlarga qarshi qudratli to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, his-tuyg'u kishining tafakkur va faol faoliyat ko'rsatishi jarayoniga jalb etilgan bo'ladi. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg'u ehtirosdir.

Depressiya - doimo g'amgin, yomon kayfiyatda yurishdir. Bunday insonlar boshqalarga aralashib keta olmaydi, kam gapiradi, ko'pincha ko'zga yosh oladi. Uning dili ma'yus, yomon fikrlar va hayollar bilan band bo'ladi. Hozirgi axvoli, o'tgan kunlari va kelajagi unga qorong'udek tuyuladi. Depressiv kayfiyat turmushdagi muvaffaqiyatsizliklar va ruhiy shikastlar oqibatida kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin. Ularning sababi bo'lganda va bu holat unchalik yaqqol bo'lmaganda uni normal reaksiya deb qarasa bo'ladi. Ruhiy kasal bemorda ovqatdan yuz

o'giradigan, o'zini qatl qilishga urinishgacha olib boradigan uzoq davom etadigan og'ir depressiyalar kuzatiladi.

Eyforiya - vaqtichog'lik, beg'amlik, bir oz ko'tarinki kayfiyat tushuniladi. Eyforiyada odam tetik, harakatchan, sergap, uning imo-ishoralari jonli gapirganda qo'llari harakatda, ovozini keragidan qattiqroq qilib chiqaradi. Olam ularning ko'ziga g'oyat chiroyli rangli bo'yoqlarda gavdalanadi. Odam xursand bo'lganida, muvaffaqiyat qozonganda va shunga o'xshash shodlik kunlarida eyforiya normal reaksiya hisoblanadi. Eyforiya uchun psixologik asoslar bo'lmasa yoki u xatto salbiy hayotiy hodisalarda ham paydo bo'lsa, uni patologik holat deb ko'zdan kechirish mumkin. Psixologiyada his-tuyg'ular turlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: ma'naviy, intellektual, estetik.

Ma'naviy (axloqiy) his-tuyg'ular - o'z mazmuniga ko'ra, kishining kishiga va kengroq ma'noda olganda, jamiyatga munosabatini bildiradi. Shaxs ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini boshqarib turadigan axloq normalari shu his-tuyg'ularning tevarak-atrofdagilardan obyektiv ravishda olib turadigan baholashning asosi hisoblanadi.

Intellektual (aqliy) his-tuyg'ular - shaxsning bilish jarayoniga, uning muvaffaqiyatliliigi va muvaffaqiyatsizligiga munosabatini ifodalaydi va aks ettiradi.

Estetik (nafosat) his-tuyg'ular - subyektning hayotida yuz beradigan turli xildagi narsalarga va ularning san'atda aks ettirilishiga nisbatan allaqanday ajoyib yoki bemani, fojiviy yoki kulgili, olijanob yoki jirkanchli, nafosatli yoki xunuk narsa sifatida munosabatini aks ettiradi va ifodalaydi.

Inson ma'naviy, intellektual va estetik tuyg'ularni faoliyat va muomala jarayonida boshdan kechiradi, bazan ularda kishining sotsial voqelikka nisbatan butun hissiy munosabatlari boyligini mujassamlashganligi uchun ular yuksak his-tuyg'ular deb ham ataladi.

Talaba yoshlarda kechadigan bunday ruhiy holatlarni anglash va kerakli tavsiyalar berish uchun “Muloqotga kirishuvchanlik”, “Teylarning bezovtalanishni aniqlash darajasi”, “Stress bilan kurashishingiz kerakmi?” kabi ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkaziladi.

1.3. Jamiyatdagi ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda ijtimoiy so‘rovnomalarning o‘rni.

Mamlakatimiz taraqqiyoti ko‘p jihatdan hozirgi talaba- yoshlarning jamiyatga, hayotga bo‘lgan munosabatiga, tafakkur sog‘lomligiga, shuningdek ularda Vatan, el-yurt, sog‘lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarining yetarli anglanganligiga va ijobiy karakter sifatlarining shakllanganligiga bog‘liq. Shaxs taraqqiyotining o‘spirinlik davri tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, mustaqil shaxsiy fuqarolik pozitsiyasi, kasbiy mas’uliyat, sog‘lom turmush tarzi haqida turg‘un tushunchalarning aniq shakllanmaganligi bilan karakterlanadi. Inson hayotining mazkur bosqichida yoshlarda ma’naviy bo‘shliq hosil bo‘lmasligi lozim. Shu xolatning oldini olish maqsadida oliygozlarda ko‘plab ma’naviy ma’rifiy tadbirlar o‘tkazib boriladi. Ommaviy axborot vositalari, oliygozlardagi ma’ruzalar, radio va televideniya orqali sog‘lom turmush madaniyati va jismoniy salomatlik xaqida keng ko‘lamda ma’lumotlar berilib boriladi. Ammo mazkur ma’lumotlar shaxs tomonidan faqat qisman qabul qilinadi va shaxsiy hayotiy tajribalari negizida qayta ishlanadi, sog‘lom turmush tarzi madaniyati, xulq-atvor ko‘nikmalari, ijobiy sifatlar talabalar tomonidan shaxsiy ma’noda faol o‘zlashtirilishi murakkab jarayon. Ijtimoiy so‘rovnomalarni o‘tkazish tavsiyalar berish yordamida yoshlar o‘zlari hali bilmagan yashirin psixologik muammolariga ham qisman yechim topa olishlariga imkoniyatlar yaratiladi. Talaba-yoshlarda turg‘un ma’naviy-axloqiy dunyoqarash, sog‘lom turmush tarzi madaniyati va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun ular bilan maqsadli yo‘naltirilgan tizimli faoliyat olib boriladi.

O'quvchi yoshlarning shaxsiy sifatlarini o'rganuvchi metodlar. Shaxsni tadqiq etish psixologiya fanidagi asosiy muammo sanaladi. Shaxs keng ko'lamli tadqiqot predmeti sifatida psixolog-tadqiqotchilarning diqqat markazidir. Ammo mamlakatimizda psixologiyaning jamiyat talabidan kelib chiqib yangi bosqichga qadam qo'yganligi, shaxs muammosiga atroflicha e'tibor qaratishni talab etadi. Buning uchun shaxsni tadqiq etishda ijtmoy so'rovnomalar o'tkazishni inobatga olgan holda muammoni tahlil etish ko'zlangan maqsadni to'laqonli baholash imkoniyatini beradi.

Shaxsni o'rganishda ob'ektiv testlar sifatida shaxsni o'rganish so'rovnomalari ahamiyatidir. Talabanning shaxsiy qiyofasini aniqlash so'rovnomalari tekshiriluvchining asosiy e'tiborini topshiriqning javobiga emas, balki topshiriqqa qaratishi, test maqsadlarining yashirin harakterga egaligi, topshiriqlarni yaxlit tuzilma sifatida taqdim qilinishi, psixometrik o'lchamga egaligi ularning yaroqliligini belgilaydi. Talabanning shaxsiy qiyofasini aniqlash so'rovnomalari uzoq vaqt davomida ishlab chiqiladi, va uni taxlil qilish ham bir muncha vaqt sarflanishini keltirib chiqaradi.

Talabanning shaxsiy qiyofasini o'rganish. Inson xulq-atvorini prognozlash masalasini hal etishda ikkita tushunchaga murojat etiladi: profil va undan kelib chiqqan holda "hislatlar". Ushbu tushunchalarni qo'llashda individga, unga har xil hislatlarni mujassamlashuviga ko'ra turli talablar qo'yiladi: vaziyat, asosiy sinchkovlik va diqqat, "e'tiborlilik-e'tiborsizlik", "batartiblik-tartibsizlik", odamlar bilan uchrashish yoki tanishish asnosida muomalaga "kirishimlilik-odamovilik", hozirjavoblik-betgachoparlik.

Qiyofa inson xulq-atvorining integral dispozitsiyada organik, ijtimoiy me'yoriy va shaxslilik harakat tizimi ostida mujassamlashgan holati sifatida qaraladi. Konstitutsional-organizm xossalarini shartlovchi va maksimal keng vaziyatlar uchun cheklangan.

Individlik-ijtimoiy me'yoriy vaziyatlarga ma'lum nisbiylik beruvchi hayotiy faoliyat tajribasini shartlaydi. Shaxs o'zining xulq-atvorini loyihalash va tahlil qilish asosida ichki muhitini shartlaydi.

Talabanning shaxsiy qiyofasini o'rganish va tavsiyalar berish uchun "Intellekt darajasini aniqlash(Raven test)", "Shulte jadvali(diqqatni aniqlash)", "Bevosita esga tushirish", "Muloqotga kirishuvchanlik", "Teylorning bezovtalanishni aniqlash darajasi", "Stress bilan kurashishingiz kerakmi?" kabi ijtimoiy so'rovnomalar o'tkaziladi.

II.BOB ASOSIY QISM

2.1.Talabanning shaxsiy qiyofasini aniqlashga yordam beruvchi ijtimoiy so‘rovnomalar ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Talabanning shaxsiy qiyofasini o‘rganish va tavsiyalar berish uchun “Intellect darajasini aniqlash(Raven test)”, “Shulte jadvali(diqqatni aniqlash)”, “Bevosita esga tushirish”, “Muloqotga kirishuvchanlik”, “Teylorning bezovtalanishni aniqlash darajasi”, “Stress bilan kurashishingiz kerakmi?”, “Depressiyaga moyilmisiz?” so‘rovnomalarini elektron shaklda o‘tkazish samaralidir.

Yuqorida keltirilgan so‘rovnomalarning nazariyasini ko‘rib chiqamiz.

Intellect darajasini aniqlash(Raven test) - Metodika mantiqiy fikr yuritish uchun mo‘ljallangan.Sinaluvchiga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shakllardan iborat rasm taqdim qilinadi.Testda bir shakl yetishmaydi, biroq u pastda 6-8 shakllar orasida beriladi.Sinaluvchining vazifasi rasmda bir biriga bog‘langan shaklning qonuniyatlari o‘rnatilgan va tavsiya etilayotgan variantlardan berilgan shaklning raqamini so‘rov varag‘iga belgilash kerak. Test 60 jadval (5 seriya) dan iborat.Xar bir jadval seriyalari qiyinchilik bilan oshib boradigan topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.Metodika seriyadan seriyaga o‘tish mashqi murakkab bo‘lishi o‘ziga xosdir.

A- seriyada matritsa o‘zaro o‘rnatilgan qonun qoida ishlatilgan .Bu yerda xar bir jadvalda berilgan asosiy tasvirning bir qismini to‘ldirish topshirig‘i berilgan.Sinaluvchiga topshiriqlarni diqqat bilan kuzatish va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash talab qilinadi.Shundan keyin jadvalda asosiy qism bilan qo‘shiladigan qism solishtiriladi.

V- seriya shakllar juftligi orasida analogiyasi tizimiga qurilgan .Sinaluvchi shunday tizimni topishi kerakki, qonun qoidaga muvofiq har bir voqea shakldan kelib chiqqan holda yetishmaydigan qismni olib o‘rniga qo‘yish kerak.Bunda namunaga asosan shakllarning joylashishi o‘q simmetriyasining to‘rligiga ahamiyat berish lozim.

S- seriya matritsa shakllarining progressiv o'zgarishi bo'yicha tuzilgan. Matritsa topshiriqlari murakkablashib boradi, xuddi to'siqsiz rivojlanishga o'xshaydi. Shakllarning o'zgarishi aniq qoidaga bo'ysungan holda yangi element shaklining yetishmaydigan qismini topishdan iborat.

D- seriya shakllar matritsada guruhlanish qoidasi bo'yicha tuzilgan. Sinaluvchi gorizantal va vertikal holatda yuz beruvchi guruhlanishni topishi kerak.

E- seriya ko'rsatilgan asosiy rasmdagi shakllar joylashuvi yo'nalishida tashkil topgan.


Qo'llanma: Test o'tkazishda vaqt belgilanadi. Buning uchun 20 daqiqa beriladi. Vaqtdan unumli foydalanish uchun, jadvalni hech kim ko'rmagani va ochmaganini qattiq nazorat qilgan holda, testni boshlash komandasi beriladi. 20 daqiqadan keyin "jadval yopilsin" komandasi beriladi. "Bizning barcha izlanishlarimiz ilmiy maqsad yo'lida olib borilayapdi, shuning uchun chuqur fikr yuritish va aniq va to'g'ri javob berish talab qilinadi. Ushbu test mantiqiy fikrlashni aniqlash uchun qo'llaniladi". Shundan keyin jadvalni olib birinchi varaq barchaga ko'rsatish uchun ochiladi. Berilgan topshiriqda bir qism yetishmaydi. O'ng tarafda 6-8 nomerlangan shakllarda tasvirlangan ulardan biri testning aniq javobi hisoblanadi.

Test masalalarini yechish paytida sinaluvchilar bir biridan ko'chmaslikni nazorat qilinadi. 20 daqiqadan keyin "jadvalni natija komandasi" beriladi, blanka va jadvallar yig'ib olinadi.

























Natijalar taxlili: Har bir to'g'ri javob bir balldan baholanadi. Shundan so'ng umumiy ballar soni barcha jadval va seriyalar alohida hisoblanadi. Erishilgan natija sinaluvchining aql idrok kuchi aniqlanadi.

Ravenning har bir jadval seriyalari uchun progressiv matritsalar shakllar majmuasidan iborat. Bu progressiv matritsalar quydagi seriyalarda keltirilgan.

























A- seriya (1.1-rasim)



























V- seriya (1.2-rasim)



























S- seriya (1.3-rasim)



D- seriya (1.4-rasim)



E – seriya(1.5-rasim)



Test (matritsa)ning javoblari

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Seriya A	4	5	1	2	6	3	6	2	1	3	4	2
Seriya B	5	6	1	2	1	3	5	6	4	3	4	8
Seriya S	5	3	2	7	8	4	5	1	7	1	6	2
Seriya D	3	4	3	8	7	6	5	4	1	2	5	6
Seriya E	7	6	8	2	1	5	1	3	6	2	4	5

1-daraja 95% dan yuqori-yuqori aql idrok;

2- daraja 75-95% - o'rtadan yuqori aql idrok;

3- daraja 25-74% - o'rta aql idrok;

4- daraja 5-24% - o'rtadan past aql idrok;

5-daraja 5% dan kichik – defekt;

Shulte jadvali(diqqatni aniqlash)

Metodika diqqatning ko'chish tezligi, murakkab sharoitlarda kerakli ma'lumotlarni tanlash bo'yicha ish qobiliyati va uning barqarorligini aniqlash uchun mo'ljallangan. Biz tavsiya etayotgan jadval Shulte jadvallari va metodologiyalar asosida tashkil etilgan. Shulte jadvali matrisa ko'rinishida bo'lib talaba o'zi matrisa sonini tanlaydi va kataklardagi tartibsiz joylashgan sonlar ketma-ketligini topib davom qildiradi.

Test natijalarining tahlili. Natijalarni hisoblashda bajarilgan barcha ishlarga sarflangan vaqt va xatolar inobatga olinadi. Uchinchi vazifani bajarish vaqti, birinchi va ikkinchisiga ketgan va yig'indisining vaqtiga tug'ri kelmaydi, chunki vaqtning bir

qismi diqqatning ko'chishiga va aytilgan sonlarni operativ tarzda esda olib qolishga sarflanadi. Ikkita vaqtinchalik ko'rsatkichlar orasidagi tafovut bir sondan ikkinchi songa diqqatning ko'chishi hisoblanadi.

Bu tafovut kam bo'lsa, diqqatning ko'chishi yaxshiroq, bo'ladi. Xatolar turi: sonni tushurib qoldirish, bitta sonni ikki marta takrorlash, usish va kamayish tartibini ketma-ketligini muvofiqligini chalkashtirish. Bu metodikani sinaluvchiga Shulte jadvali ko'rsatilganidan keyin ishlatish mumkin, chunki bu ikkita metodika natijalarini bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash. Taqqoslash uchun Shulte metodikasidagi vazifani bajarishning o'rtacha vaqti Gorbov jadvali bo'yicha qayd etilgan ish vaqti olinadi. Ikkita ko'rsatkich o'rtasidagi vaqtning tafovuti diqqatning kuchish xususiyati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bevosita esga tushirish(qisqa muddatli xotirani o'rganish)

So'rovnomadan maqsad: Shaxsning qisqa muddatli xotirasini ko'rish sezgisi orqali hajmi va aniqligini o'rganish.

Tekshiriluvchi to'ldirilishi kerak bo'lgan jadval

12	91	37	30
65	86	18	51
23	94	79	87

Yo‘riqnoma: Sizdan iltimos, hozir sizga namoyon qilinadigan jadvalda jami bo‘lib 12 ta 2 xonali sonlar beriladi. Siz 20 soniya davomida diqqat bilan sonlarni kuzatib imkon darajasida ko‘proq eslab qolishga harakat qiling. Qancha ko‘p eslab qolsangiz, **xotirangizni** baholash shuncha yuqori hisoblanadi.

So‘rovnomaing borishi: Tekshiriluvchiga 12 ta katak ichiga yozilgan 2 xonali bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan sonlar yozilgan jadval 20 daqiqa davomida namoyish etiladi. So‘ngra jadval olib qo‘yilib oldindan tayyorlab qo‘yilgan, bo‘sh jadval berilib to‘ldirib berish so‘raladi.

Muloqotga kirishuvchanlik (V.Ryaxovskiy testi)

Quyida berilgan 16 savolga “ha”, “yo‘q”, “ba‘zan” deb javob bering.

1. Sizni amaliy uchrashuv kutmoqda. Uni betoqatlik bilan kutasizmi?
2. Sizni biror kasallik xoldan toydirmaguncha, vrachning oldiga borishni orqaga suravermaysizmi?
3. Sizni biror mavzudagi axborot bilan yigilish, majlis va shunga uxshash tadbirda ma‘ruza bilan chiqish topshirigi xavotirga soladimi?
4. Sizga ilgari bormagan shaxringizga safarga borib kelishni taklif etishdi. Shu safarga bormaslik uchun bor imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O‘zingizdagi xissiy kechinmalar bilan kimlar bilandir o‘rtoqlashishni yaxshi kurasizmi?
6. Ko‘chada sizga notanish odam biror iltimos bilan murojaat qilsa, sizning g‘ashingiz keladimi?
7. Siz “Otalar va bolalar” muammosi borligi va turli avlod vakillarining bir-birlarini tushunishlari qiyinligiga ishonasizmi?
8. Tanishingizga bir necha oy avval olgan qarz pulini eslatishga uyalasizmi?
9. Oshxona yoki restoranda sizga yoqmaydigan taom berishdi, idishni chetga surib, achchig‘ingiz kelganini yashira olasizmi?
10. Begona odam bilan yolg‘iz qolganingizda, u birinchi bo‘lib gap boshlasa, Sizga

javob qaytarish malol keladimi?

11. Siz turli erlarda odamlarning uzun navbatda turishganini kursangiz, tokatingiz tok buladimi. Navbatda turib kutishdan kura, uz niyatingizdan voz kechishni afzal kurasizmi?
12. Biror janjalli vaziyatni muxokama kilishi kerak bulgan komissiyaning a'zosi bulishdan kurkasizmi?
13. Sizda biror adabiet, san'at va madaniyat asarlarini baxolashning sof individual mezonlari bor va bu borada boshkalarning fikrini kabul kilmaysiz. Shundaymi?
14. Sizga juda tanish bulgan masala buyicha boshkalarning notugri fikrlarini tasodifan eshitib kolsangiz, indamay kuya kolasizmi?
15. U eki bu masalada erdam berishingizni surashsa, siz bundan ogrinasizmi?
